

.....

O‘ZBEK TILINING IFODA VA OHANG IMKONIYATLARINI TADQIQ ETISHDA ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSINING O‘RNI

Olima G‘ayratova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning o‘zbek tili taraqqiyoti, uning ifoda va ohang imkoniyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni hamda tilshunoslikka oid qarashlari tahlil qilingan. Unda Navoiy ijodining nafaqat badiiy, balki lingvistik jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekani, xususan, turkiy tilning nufuzini oshirish, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasi yoritilgan. Maqolada temuriylar davrida til va adabiyot rivojiga yaratilgan sharoitlar, Husayn Boyqaro va boshqa zamondoshlarining Navoiy faoliyatiga bergan baholari, shuningdek, shoir asarlarining til xususiyatlari ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida Alisher Navoiy merosi o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini namoyon etuvchi, milliy adabiy til taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi bebaho manba ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, o‘zbek tili, adabiy til, tilshunoslik, turkiy til, badiiy nutq, til imkoniyatlari, Navoiy asarlari tili, temuriylar davri, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, milliy til, lingvistik meros.

Har bir til jamiyat bilan birgalikda uzluksiz taraqqiy etib borar ekan, lingvistik omillar tilshunoslar oldiga yangi-yangi tadqiqotlarni ko‘ndalang qo‘yaveradi. Ayniqsa, badiiy asar tilini o‘rganish o‘zbek tilshunosligining hozirgi kundagi munozarali va dolzarb masalalaridan biridir. Ta’kidlash o‘rinliki, o‘zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlariga ilmiy asosda munosabat bildirish tamoyillari Alisher Navoiy ijodiga borib taqaladi.

Alisher Navoiy o‘zining tilshunoslikka doir qarashlarida, avvalo, davlatning milliy tilga munosabati masalasida, uning jamiyat hayotidagi ahamiyati naqadar muhim ekanligi borasida alohida to‘xtalib o‘tgan. Xususan, temuriy hukmdorlarning tilimiz va adabiyotimiz taraqqiyotida katta rol o‘ynaganini u quyidagicha ta’kidlab yozadi:“...Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohrux Sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo‘ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodi

(nabiralari) din ham xush ta'salotine zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar" [1;69]. Bu masalada, ayniqsa, Husayn Boyqaro donolarcha siyosat olib borganini, o'rni kelganda hatto Navoiyning o'ziga ham yordam qo'lini cho'zganini, ko'p masalalarda unga suyanganini shunday e'tirof etadi: "Va yillar turk tili va nazmi qoida va uslubida bilmaganlarimni so'rib va mushkullarimni halloli mushkulotim tobug'ida arzga yetkurib, azim foidalar topib, kulliy natijalar ko'rdim" [1;77]. Husayn Boyqaro esa Navoiyning o'zbek adabiyoti va o'zbek adabiy tilini shakllantirish va rivojlantirishdagi tarixiy xizmatlari to'g'risida mashhur "Risola"da quyidagi satrlarni bitgan: "...turk tilining o'lgan josadig'a (Navoiy) Masih anfosi (Iso nafasi) bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlarga turkiy uyin alfoz tori hudidin tuqilg'on hilla va harir kiydurdi va so'z gulistonida hayvonot ta'bidin ravon aso yog'inlar bila rangorang gullar ochti va nazm daryosiga sahob fikratidin ruhparvar qatralar bila gunogun durlar sochti. Har sinf she'r maydonig'akim takovar surdi, g'ul kishvarni tig'i zabon bila o'z xittai tasarrufig'a kiyurdi..." [1;94].

Anglashiladiki, Navoiyning ijodiy faoliyati bilan bir qatorda tilshunoslik faoliyati ham buyuk va murakkab jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, u o'z ona tili uchun kurashda qahramonlik va chin vatanparvarlik namunalarini namoyon etgan. Buni Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiydan boshlab barcha zamondoshlari tan olgan va yuksak baholaganlar.

Ta'kidlash joizli, Navoiy asarlarining tilida hozirgi zamon o'zbek kitobxonlari uchun tushunilishi qiyin bo'lgan jihatlar oz emas. Lekin bundan kelib chiqib, Navoiy asarlari tili va uslubi bo'yicha ushbu xususiyatlarni orttirib baholash to'g'ri emas [2;78]. Masalan, shoir, "Xamsa"dagi "Layli va Majnun" dostonini yozib tugallar ekan, u o'z xalqiga chin dilidan yana bir noyob tuhfa hadya etayotganini quyidagicha go'zal va samimiy ifodalagan edi:

Men turkcha boshlabon rivoyat,

Qildim bu fasonani hikoyat,-

Kim Shuhong'a to'lg'ay,

Turk eliga dog'i barcha bo'lg'ay!

Nevchunki bugun jahonda atrok-

Ko'ptir,-xushtab'u sofî idrok [3;108].

Bu o'rinda "vaqteki" ma'nosidagi "chun", "turk" (ya'ni o'zbeklar) ma'nosidagi "atrok" (ko'plikning arabcha ifodasi – S.J.) so'zlarini hisobga olmasak, bunda shoir o'z fikrlarini oliy darajada go'zal va turkona, ya'ni o'zbekona ifodalagan, deyish mumkin. Yoki "Saddi Iskandariy" dostonidan olingan quyidagi baytlarni ko'zdan kechiraylik:

Erurlar g'animat bori bu zamon,

Ki birg'birga siz barchangiz mehmon...

Oling ayshdin umrning komini;

Tutung xush yigitlikning ayyomini...

O'zingizni mehnat kuni ovuting.

Ne g'am kelsa davrondin-oston tuting [2;98].

Biz uchun Navoiyning adabiy ijodi qay darajada qimmatli bo'lsa, uning tilshunoslikka doir merosi ham shunchalik ahamiyatli va benazirdir. Uning til haqidagi fikr va mulohazalari asardan asarga chuqurlasha borgan. XV asrdan boshlab shoir asarlariga o'nlarча lug'atlar tuzilgan. Shoir asarlari tilini o'rganishga o'zbek tilshunos olimlaridan S.Mutallibov, A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, E.Fozilov, V.Vafojev, E.Umarov va boshqalar salmoqli hissa qo'shganlar. Navoiy asarlari tilini o'rganish bo'yicha boshqa mamlakatlarda ham qiziqarli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon davom etmoqda [4;47]. Demak, temuriylar davrida Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari amal qilgan davlatchilik siyosati tufayli an'anaviy fors tilining nufuzi pasaytirilmagani holda turkiy tillarning obro'-e'tiborini ko'rsatishga katta imkoniyat yaratilgan edi. Ana shunday sharoitda she'riyat sultoni Alisher Navoiy ma'naviyat gulshaniga kirib keldi va "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois", "Mezon ul – avzon", "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlari bilan turk (o'zbek) tilining shuhratini olamga yoydi [5;46].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlarini tadqiq

etishda Alisher Navoiy ijodiy merosining o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, bugungi dorulomon kunlarda Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlarining Movarounnahr madaniy hayotida tutgan o‘rnini o‘rganish, tadqiq qilish, shuningdek, temuriylar davlatchiligida muhim o‘rin tutgan ulkan shaxs – buyuk Navoiyni o‘qish, uning adabiy merosini, ijodining til xususiyatlarini, so‘z boyligini o‘rganish alohida ma’no kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. 15-tomlik, 14-tom. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1967.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991.
3. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991.
4. Ta’lim jarayonida so‘z boyligini oshirishning asosiy omillari // O‘zbek tilshunosligi masalalari ilmiy anjumani tezislari . –Toshkent: Fan.1995.
5. Inomjonovna, I. D., & Husanova, U. (2025, May). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TILNING PAYDO BO ‘LISHIGA OID QARASHLAR. In Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 162-164).
6. Komilov N., Vohidov E., Qo‘chqorov U. Alisher Navoiy – ikkinchi ming yillik dahosi// Tafakkur jurnali. 2001. 2-son.
7. RAKHMATOV, M. M., RAXMATOV, M. M., & PAXMATOB, M. M. (2025). EXPRESSION OF SPEECH SUBJECT IN ALISHER NAVOI GHAZALS.
8. Rahmatov, M. (2022). Alisher Navoiyning lirik asarlarida takrirlarning sintaktik-semantik xususiyatlari. Uzbekistan: Language and Culture, 3(3).
9. Mamajonova, N. (2025). TOPISHMOQLAR–OLAM MANZARASINING IKKILAMCHI NOMI SIFATIDA. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 102-102.
10. Хужаев, М. И. (2020). Bashkir turkish studies. epra International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online, 5(8).
11. Isoxonovich, M. X. (2022). Middle Ages Movarounnahr Rulers in the Views OF Researchers. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(6), 134-136.

12. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALARITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
13. Хужаев, М. И. (2018). АҲМАД ЗАКИ ВАЛИДИЙНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).
14. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.